


Qandli diabedning OG'IR HOLATI



Bolalar va o'smirlarda 1-tur qandli diabetda baravar keladigan kasalliklarni o'tkir holatga o'tganda davolash

Farzandingiz kasal bo'lib qolsa, quyidagi sabablarga ko'ra diabetni nazorat qilishni qiyinlashtirishi mumkin:

- baravar keladigan kasalliklar (ayniqsa, o'tkir yallig'lanish jarayonlari va yuqumli kasalliklar) odatda qondagi qand darajasining oshishiga olib keladi;
- o'tkir yuqumli kasallik paytida ishtaxa pasayishi mumkin, shuning uchun insulinning odatdagi dozasi ko'p bo'lishi mumkin;
- ko'ngil aynishi yoki qayt qilish qonda qand darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, ular diabetik ketoatsidozni boshlang'ich alomatlari bo'lishi mumkin.



Ushbu risoladagi ma'lumotlar sizning shifokoringiz maslahatini

o'zgartirmaydi. Savollaringiz bo'lsa, mutaxassis bilan maslahatlashing.

Diabetik ketoatsidozning belgilari

Farzandingizni diqqat bilan kuzatib boring



Farzandingizni diqqat bilan kuzatib borishingiz va qondagi shakar darajasini va tana haroratini muntazam ravishda o'lchashingiz muhimdir.

Bolaning ishtahasi pasaygan bo'lsa ham, insulin olishi kerak.

Siz insulin dozasini o'zgartirishingiz kerak bo'lishi mumkin. Bunda shifokoringiz yordam beradi. Qandli diabetni davolashda tajriba orttirganingiz sayin, bu vazifa unchalik qiyin tuyilmaydi.

Agar qonda qand darajasi yuqori bo'lsa, test-chizig'i yordamida keton tanalari mavjudligi uchun siydik yoki qon testini o'tkazish kerak. Agar keton tanachalari aniqlansa, darhol shifokorga murojaat qilishingiz kerak, ayniqsa bolada chapdagi rasmda ko'rsatilgan alomatlardan biri bo'lsa.

Qo'shimcha kasalliklar (masalan, shamollash, infeksiya) diabetik ketoatsidozning keng tarqalgan sababidir.



Farzandingizda ushbu alomatlardan birini sezsangiz, darhol shifokoringizga murojaat qilishingiz kerak.

Og'izdan yoki tanadan mevali hidi kelishi (shuningdek, aseton hidi, tirnoq bo'yog'ini tozalash vositasi, aynigan olma yoki nok hidiga o'xshash)

Epigastriumda og'riq (oshqozon sohasida)

Chanqash belgilari (masalan, og'iz qurishi, tashnalik, kam siyish)

Tez nafas olish

Ko'ngil aynashi yoki qushish

Qonda qand miqdorining oshishi

Shoshilinch tibbiy yordam qachon kerak bo'лади?

Shifokor maslahati sizga shoshilinch tibbiy yordam zarurligini aniqlashga yordam beradi. Farzandingizda quyidagilar bo'lsa, darhol shifokoringizga murojaat qilishingiz kerak:

- insulin kiritilishiga qaramay, bir necha o'lchovlarda qonda qand miqdorining yuqori bo'lishi;
- oziq-ovqat bilan oson hazm bo'ladigan uglevodlarni iste'mol qilishiga qaramay, oziq-ovqatning sekin hazm bo'lishi tufayli qonda qand miqdorining pasayishi;
- siydik yoki qondagi keton tanalarining yuqori darajasi;
- kuchli doimiy diareya va (yoki) qusish;
- quruq og'iz yoki siydik chiqarishning kamayishi (quruq taglik) kabi suvsizlanish belgilari;
- antipiretiklarni qabul qilishiga qaramay, yuqori isitma.



1-tur qandli diabet bilan kasallangan bolalar va o'smirlarga qo'shma kasalliklar paytida yordam berish bo'yicha maslahatlar

- Qonda qand miqdorini muntazam ravishda tekshiring - kamida har to'rt soatda;
- Ovqatlanish rejasiga rioya qilishga harakat qiling. Farzandingizga suxarik kabi oson hazm bo'ladigan oziqa bering. Agar bolangiz ovqat eyishni rad etsa, unga sharbat, mevali muz yoki shirin sharbat yoki boshqa ichimlikni taklif qiling;
- Bolada suvsizlanish yo'qligiga ishonch hosil qiling, ayniqsa qusish yoki diareya bo'lsa;
- Qonda qand miqdorini ko'payishini oldini olish uchun shifokor tavsiyalariga muvofiq insulin yuborishni davom eting;
- Har doim tayyor bo'ling: kerak bo'lishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat yoki ichimliklarni yig'ib qo'ying;

Xavfli holatlar algoritmini shifokor bilan oldindan kelishib oling.

Davolovchi shifokor sizga bolalardagi qo'shma kasalliklar paydo bo'lganda diabetni qanday boshqarish haqida maslahat beradi, ayniqsa:

- qonda qand miqdori va keton tanalarini qanday va qachon o'lchash kerakligini;
- shifokor retseptisiz qanday dori vositalaridan foydalanishingiz mumkinligini;
- oziq-ovqat, suyuqlik va dori-darmonlarni iste'mol qilish o'zgarishiga qarab insulin dozasini qanday o'zgartirish kerakligini tushuntiradi.

Agar bolangizning sog'lig'i haqida tashvishlansangiz, shifokoringiz bilan maslahatlashing yoki shoshilinch tibbiy yordam xizmatiga murojaat qiling.

"Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish algoritmlari" I.I. Dedova, M.V. Shestakova, A.Yu. Mayorovalar tahriri ostida, 10-nashr, 2021 yil.